

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
2024-2025 o‘quv yili
I-chorak
choraklik summativ baholash
test savollari.
6-sinf

2-variant

1-25 matematika, 26-45 ona tili va adabiyoti.

(B-bilish; Q-ko‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi F.I.SH).....

1. (B 1,3 ball) Juft va toq sonlar uchun quyidagi mulohazalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Nº	Mulohazalar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	Ikkita toq sonning yig‘indisi doimo juft bo‘ladi		
2	Ikkita juft sonning ko‘paytmasi doimo toq bo‘ladi		
3	Uchta toq sonning yig‘indisi doimo juft bo‘ladi		

- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri
B) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri
C) to‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri
D) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri

2. (B 1,3 ball) 20 va 30 orasidagi eng katta va eng kichik tub sonlar yig‘indisini toping.

- A) 52 B) 42 C) 24 D) 59

3. (B 1,3 ball) Quyidagi kasrlardan nechtasi $\frac{16}{20}$ ga teng: $\frac{3}{7}$; $\frac{8}{10}$; $\frac{24}{30}$; $\frac{4}{5}$; $\frac{48}{72}$

- A) 2 ta B) 1 ta C) 4 ta D) 3 ta

4. (B 1,3 ball) O‘zaro teskari bo‘lgan sonlar juftligini toping va mos keltiring.

1. $\frac{3}{10}$	A. $\frac{4}{7}$
2. $1\frac{3}{4}$	B. $\frac{8}{6}$
3. $\frac{3}{4}$	C. $3\frac{1}{3}$
	D. $1\frac{1}{5}$

A) 1 – C; 2 – D; 3 – B.

C) 1 – C; 2 – A; 3 – B.

B) 1 – D; 2 – B; 3 – A.

D) 1 – D; 2 – A; 3 – C.


5. (Q 1,6 ball) Ushbu $28 * +364$ yig‘indi 2 ga bo‘linishi uchun yulduzcha (*) o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan raqamlar yig‘indisini toping.

A) 16 B) 18 C) 20 D) 22

6. (Q 1,6 ball) 3 ga bo‘linadigan lekin 9 ga bo‘linmaydigan dastlabki 4 ta ikki xonali sonlar yig‘indisini toping.

A) 92 B) 72 C) 69 D) 105

7. (Q 1,6 ball) Quyidagi ko‘paytuvchilar daraxtini to‘ldiring va aylanalarga to‘g‘ri keladigan sonlardan eng kattasi va eng kichigining yig‘indisini toping.



A) 7 B) 5 C) 12 D) 8

8. (Q 1,6 ball) 6 sinfda 54 ta o‘g‘il bola va 36 ta qiz bola o‘qiydi. Bu o‘quvchilardan bir xil tarkibli (qizlar soni ham teng, o‘g‘il bolalar soni ham teng) guruhlar tuzildi. Har bir guruhdagi qiz bolalar soni eng kami bilan nechta bo‘lishini toping.

A) 2 B) 6 C) 4 D) 3

9. (Q 1,6 ball) 16, 24 va 30 sonlarining EKUKini toping.

A) 90 B) 120 C) 180 D) 240

10. (Q 1,6 ball) Tenglamani yeching. $\frac{3}{5} = \frac{15}{x+8}$

A) 9 B) 16 C) 18 D) 17

11. (Q 1,6 ball) $\frac{4}{9}$ va $\frac{5}{6}$ sonlar orasida maxraji 18 ga teng bo‘lgan nechta kasr bor?

A) 8 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 9 ta

12. (Q 1,6 ball) Kasrlarni qisqartiring, so‘ngra umumiyligi maxrajga keltiring. $\left(\frac{18}{45}; \frac{9}{24}\right)$

A) $\left(\frac{14}{40}; \frac{15}{40}\right)$ B) $\left(\frac{16}{40}; \frac{15}{40}\right)$ C) $\left(\frac{16}{40}; \frac{18}{40}\right)$ D) $\left(\frac{14}{40}; \frac{18}{40}\right)$

13. (Q 1,6 ball) Berilgan sonlarni o'sish tartibida joylashtiring:

$$a = \frac{7}{8}; b = \frac{3}{4}; c = \frac{10}{12}; d = \frac{22}{24}$$

A) $b < c < d < a$

C) $c < b < a < d$

B) $b < c < a < d$

D) $d < a < c < b$

14. (Q 1,6 ball) A ning qiymatini toping.

$$\frac{2}{5} + \frac{7}{15} - \frac{A}{45} = \frac{5}{9}$$

A) 24 B) $\frac{1}{14}$ C) 14 D) 23

15. (Q 1,6 ball) Uchburchakning tomonlari $\frac{3}{8}$ m, $\frac{5}{16}$ m va $\frac{21}{40}$ m ga teng. Shu uchburchak perimetrini toping.

A) $1\frac{17}{80}$ B) $1\frac{1}{80}$ C) $2\frac{7}{80}$ D) $2\frac{1}{80}$

16. (Q 1,6 ball) Tenglamani yeching: $\left(x - 2\frac{11}{14}\right) - 1\frac{6}{7} = 3\frac{19}{42}$

A) $8\frac{2}{21}$ B) $8\frac{2}{42}$ C) $7\frac{4}{21}$ D) $9\frac{2}{21}$

17. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$\frac{21}{75} \times \frac{3}{7} \times \frac{5}{7}$$

A) 7 B) 35 C) $\frac{1}{35}$ D) $\frac{3}{35}$

18. (Q 1,6 ball) Hisoblang: $4\frac{2}{17} \times 3\frac{2}{5}$

A) $\frac{1}{12}$ B) 14 C) $\frac{1}{14}$ D) 12

19. (Q 1,6 ball) Avtomobil 54 km/h tezlik bilan 2 soat-u 20 minut, 60 km/h tezlik bilan 1 soat-u 45 minut yo'l yurdi. Avtomobil jami necha km yo'l yurgan?

A) 331 km B) 248 km C) 231 km D) 229 km

20. (Q 1,6 ball) Uchburchakning perimetri 72 cm ga teng. Uning bir tomoni perimetrniga $\frac{1}{4}$ qismiga, ikkinchi tomoni $\frac{7}{18}$ qismiga teng bo'lsa, uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

A) 26 cm B) 28 cm C) 32 cm D) 24 cm

21. (Q 1,6 ball) Buyumning narxi 24000 so'm edi. Buyum bu narxning avval $\frac{1}{3}$ qismiga arzonlashdi. Keyin yangi narxining $\frac{1}{4}$ qismiga arzonlashdi. Ma'lum vaqtdan so'ng buyum oxirgi narxning $\frac{1}{5}$ qismiga qimmatlashdi. Nodirning 15000 so'm puli bor. Uning puli bu buyumni sotib olish uchun yetadimi?

A) ha yetadi, 400 so'm ortib qoladi;

B) ha yetadi, 600 so'm ortib qoladi;

C) yo'q yetmaydi, 600 so'm kerak bo'ladi;

D) yo'q yetmaydi, 400 so'm kerak bo'ladi;

22. (Q 1,6ball) Ifodaning qiymatini $a = \frac{9}{62}$ bo‘lganda hisoblang:

$$2\frac{11}{15} \times a - 1\frac{3}{5} \times a + \frac{14}{15}a$$

- A) $\frac{9}{15}$ B) $\frac{9}{10}$ C) $\frac{3}{10}$ D) $\frac{4}{10}$

23. (M 2 ball) Agar EKUB(a, b) = 36 va EKUK(a, b) = 216 bo‘lib, a va b sonlari bir-biriga bo‘linmasa, $a + b$ ni toping.

- A) 150 B) 120 C) 280 D) 180

24. (M 2 ball) Hisoblang: $\frac{1}{20} + \frac{1}{30} + \frac{1}{42} + \dots + \frac{1}{306}$

- A) $\frac{7}{36}$ B) $\frac{7}{18}$ C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{5}{36}$

25. (M 2 ball) Bo‘s sh hovuz birinchi quvur orqali 15 soatda, ikkinchi quvur orqali 30 soatda to‘ladi. Ikkala quvur bir vaqtida ochilsa, birgalikda bo‘s sh hovuzni necha soatda to‘ldiradi?

- A) 8 soatda B) 10 soatda C) 12 soatda D) 4 soatda

26. (B 2,5 ball) Bus-butun, yum-yumaloq, qip-qizil, oppoq ushbu belgi bildiruvchi so‘zlarga tegishli birlik keltirilgan qatorni aniqlang.
A) ozaytirma daraja B) orttirma daraja C) qiyosiy daraja D) oddiy daraja

27. (B 2,5 ball) So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildirib kelgan birlik ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Kitobga, ayniqsa, ilmiy asarlarga mehrim bo‘lakcha.
B) Hoy o‘glim, bu yoqqa kel, tezroq!
C) Men, Sobitov Odiljon, 2012-yilda tug‘ilganman.
D) Dadam bog‘bon, savodsiz bizningcha...

28. (B 2,5 ball) Familiya, ism va otaism; tug‘ilgan yil, kun va oy; millat va ijtimoiy kelib chiqish (h.k.) kabi ma’lumotlar qaysi hujjat turida aks ettiriladi?

- A) tavsyanoma B) ariza C) tushuntirish xati D) tarjimayi hol

29. (Q 4,5 ball) Ushbu parchadagi fe’llarning shaxs va soni to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

Bog‘bon olmazorni ko‘rsatdi, bolalar olmalardan tatib ko‘rishdi. Tushgacha mevalarni terib, savatchalarga joylashdi. So‘ng ro‘yxat bo‘yicha xonadonlarga tarqatishga kirishildi.

- A) II shaxs; ko‘plik son shaklida
B) II shaxs; faqat ko‘plik son shaklida
C) III shaxs; faqat birlik son shaklida
D) III shaxs; birlik va ko‘plik son shaklida

30. (Q 4,5 ball) Olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlar keltirilgan qatorni aniqlang.

– Qo‘lqoplar ham senga, o‘zingni ehtiyyot qil! – qo‘l silkidi Alisher. Bilol

qo‘lqoplarni mahkam quchgancha mashina ortidan qarab qoldi...

- A) ham, o‘zingni B) senga, ortidan C) senga, o‘zingni D) ham, quchgancha

31. (Q 4,5 ball) Ushbu gapdag'i fe'llarning zamonini aniqlang.

Bilol qo'lganidan kiydi-da, toza qorni dumaloqlab Alisherga, Alisher esa Bilolga otdi.

- A) kiydi-da, dumaloqlab, otdi – o'tgan zamon
- B) dumaloqlab, otdi – o'tgan zamon; kiydi-da – hozirgi zamon
- C) kiydi-da, dumaloqlab, otdi – kelasi zamon
- D) dumaloqlab, otdi – o'tgan zamon; kiydi-da – kelasi zamon

32. (Q 4,5 ball) Matndan undalma va unga tegishli (tushirib qoldirilgan) tinish belgilar to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang.

– Menga esa Qor malikasining muz saroyi yoqadi. Hayron bo'lmang, do'stim, chunki qorni faqat ekranda tomosha qilganman-da. Bizning iqlimimiz issiqligi uchun kamdan kam qor yog'adi, – dedi Bilol.

- A) undalma: do'stim; tinish belgisi: vergul
- B) undalmalar: hayron bo'lmang, do'stim; tinish belgilar: vergul, vergul

C) undalmalar: Bilol, hayron bo'lmang; tinish belgilar: vergul, tire

D) undalma: Bilol; tinish belgisi: tire

33. (Q 4,5 ball) Ushbu matn esse yozish tartibining qaysi qismiga mos keladi? Shirinliklarning kayfiyatni ko'tarishi, ko'ngillarni chog' qilishi kabi afzallikkari bilan birga salomatligimiz uchun, aniqrog'i, tishlarimiz uchun qanchalik xavf tug'dirishi haqida ham hech o'ylab ko'rghanmisiz?

- A) misollar keltirish
- B) natijani ifodalash
- C) solishtirish va farqlash
- D) yechim taklif qilish

34. (Q 4,5 ball) Ibora larni izohlari bilan moslashtiring.

1) ko'zi to'rt bo'lmoq; 2) ko'z yummoq; 3) og'zidan bol tommoq; 4) og'zi ulog'ida; 5) og'zining tanobi qochgan

a) kutmoq; b) ko'rib ko'rmaslikka olmoq; c) xursand; d) shurinsuxan.

- | | |
|---------------------------------|---------------------------------|
| A) 1 – d; 2 – c; 3-4-5 – b | C) 1 – c; 2 – a; 3-4-5 – d |
| B) 1 – a; 2 – b; 3 – d; 4-5 – c | D) 1 – c; 2 – d; 3 – b; 4-5 – a |

35. (M 5,5 ball) O'zaro bog'liq matnlarni ajrating.

1. U o'rmon atrofidagi qishloq aholisining yaroqsiz qog'oz va eski kitoblarini yig'a boshlabdi. Chunki ularni qayta ishlash uchun topshirsa, qancha daraxtni kesilishdan asrab qolishini bilardi-da.

2. Ertasi kuni Eldor chizgan rasmlarini mакtab burchagiga ilib qo'ydi. Rasmlarining birida daraxtni quchib turgan katta va kichik bolalar, daraxt yonida ikkita bolasi bilan Turon yo'lbarasi, ortida mavjlanib turgan dengiz tasvirlangan edi.

3. Birpasda bolalar rasm atrofini o'rab olib muhokama qilishga tushib ketishdi. Bir-birlariga javobsiz savollar yog'dirishdi:

– Nahot shuncha narsani boy berdik? Nima qilsak, zaminimizni qutqaramiz?

4. Darsdan so'ng bolalar qilmoqchi bo'lgan ishlarini rejallashtirib olish uchun

Eldorning bobosidan maslahat so‘rashga kelishib oldilar.

5. U o‘rmondagи ildizini qurt kemirayotgan qarag‘ayga, oyog‘iga zirapcha kirgan arslonga ham yordam beribdi.

- A) 3-, 4-matnlar o‘zaro; 1-, 2- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq
- B) 1-, 2-, 4-matnlar o‘zaro; 3- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq
- C) 2-, 4-matnlar o‘zaro; 1-, 3- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq
- D) 1-, 5-matnlar o‘zaro; 2-, 3-, va 4-matnlar o‘zaro bog‘liq

36. (B 2,5 ball) Keltirilgan ma’lumotlar orasidan Odil Yoqubovga tegishlilarini aniqlang

1. Ikkinci jahon urushi yillarida yoshini katta ko‘rsatib, urushga ketgan ijodkor.
2. Urush yillarida yalangoyoq tikan kechib, “eshak karvon”larda front uchun g‘alla tashiganini xotirlaydi.
3. “Yaxshilik” hikoyasida ikkinchi jahon urushi paytidagi xalqimiz hayoti hikoya qilinadi.
4. Kirmagan eshigi, qilmagan xizmati, tutinmagan ishi qolmaganligi haqida xotirlaydi.
5. Uning asaridagi voqealar XX asr boshlarida Toshkent atrofidagi qishloqlarda bo‘lib o‘tadi.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 1, 2, 3
- C) 2, 3, 4, 5
- D) Faqat 3

37. (B 2,5 ball) “Shum bola” qissasi haqidagi to‘g‘ri fikrlarni aniqlang.

- A) Mushtipar onaning bebosh o‘g‘ilni to‘g‘ri yo‘lga solishi yo‘lida chekkan mashaqqatlari aks ettirilgan asar.
- B) Yetim bolaning taqdiri, sarguzashtlari haqida hikoya qilinadigan asar.
- C) Qo‘shnilar oldida qattiq mulzam bo‘lgan bolaning uyidan chiqib ketishi haqidagi asar.
- D) O‘zga madaniyat, o‘zga urf-odatlarni ko‘rish maqsadida yo‘lga otlangan bolaning sarguzashtlari haqidagi asar.

38. (B 2,5 ball) “Shum bola” asaridan keltirilgan parchadan ajratilgan so‘zning ma’nosini aniqlang.

“...bir hovuch suvni lazzat bilan shimirib turgan edim, **gard** namoyon bo‘ldi”.

- A) gard – yelka, gardan
- B) gard – suv uzanida paydo bo‘ladigan o‘rama
- C) gard – kirlangan to‘shama, sholcha
- D) gard – chang, to‘zon

39. (Q 4,5 ball) “Eng og‘ir gunoh” hikoyasida onaning yolg‘on gapiresh sababi ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) Jigar-bag‘ri o‘rtanayotgan ona pochtachi olib kelgan shumxabarni kelinidan sir tutish maqsadida yolg‘on gapireshga majbur bo‘ladi.
- B) Yo‘qolgan oltin baldoq qishki nimchasining ichki cho‘ntagidan topilganligini sir tutish maqsadida ona yolg‘on gapireshga majbur bo‘ladi.

- C) Ona sal oldinroq grafinni sindirib qo‘ygani uchun otasidan yaxshigina dakki eshitgan o‘g‘lini himoya qilish maqsadida yolg‘on gapishtiga majbur bo‘ladi.
D) Ona achchiqlanib tolqonni to‘kib yuborgan o‘g‘lini otasining g‘azabidan asrash uchun yolg‘on gapishtiga majbur bo‘ladi.

40. (Q 4,5 ball) “Eng og‘ir gunoh” hikoyasidan keltirilgan parchalarni hikoya mazmuniga oid ketma-ketlikda joylang.

1. Bir qoshiq tolqon yeyishim bilan to‘satdan soqqam esimga tushib qoldi. U cho‘ntagimni qarayman – yo‘q, bu cho‘ntagimni qarayman – yo‘q.
2. Bir kuni Xo‘ja, Toy, Vali to‘rtovlashib rosa soqqaquvar o‘ynadik. Jimitdekkina soqqam bilan bir do‘ppi yong‘oqni yutib oldim.
3. Kuz kirganini qishloq bolasingning qo‘lidan bilsa bo‘ladi. Yong‘oq hali “paqqa” bo‘lib ajralmasdan turib, daraxtga tarmashib ketamiz.
4. Men oyimga qaradim. U bo‘lsa hamon bosh ko‘tarmay o‘tirar, ko‘zlarida iztirob bor edi.

A) 4, 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4 C) 3, 2, 1, 4 D) 2, 4, 3, 1

41. (Q 4,5 ball) “Yaxshilik” hikoyasidan keltirilgan parchalarni hikoya mazmuniga oid ketma-ketlikda joylang.

1. Oradan o‘n besh kunlar o‘tganda tog‘am bilan birga jangga kirgan bir hamqishloq yigitdan xat keldi. U yigitning yozishicha, tog‘am yarador bo‘lib, gospitalga olib ketilgan emish.
2. Men ba’zan unga har xil kitoblar olib kelib berardim. U kitobni minnatdorchilik bilan olar, meni erkalar, lekin juda kam o‘qir, yo o‘qiy boshlasa ham, yarmiga yetmasdanoq yopib qo‘yar edi.
3. ... Buvimning sersoya bog‘i qarindosh-urug‘larimizga, tog‘amning yorbirodarlariga to‘lgan: birov o‘choq qurmoqda, birov o‘tin yormoqda, birov hovliga suv sepib, so‘riga palos yozmoqda. Kechqurun to‘y!
4. Arava yonginamdan o‘tib ketdi. Men, dilim qon, unga iltijo qilganimcha orqada qoldim. Arava muyulishdan burilib ketdi, kelinoyim hatto qo‘lini ham siltamadi.

A) 3, 2, 1, 4 B) 2, 4, 3, 1 C) 1, 2, 3, 4 D) 4, 1, 2, 3

42. (Q 4,5 ball) “Shum bola” qissasidan keltirilgan parchalarni mazmuniy ketma-ketlikda joylang.

1. Erta bilan bir otga minib, boyning oldiga qarab yo‘l soldim. Yo‘l-yo‘lakay ming xil xayollarga botib o‘ylayman. Qanday qilib “innaykeyin”iga javob topish kerak?
2. Bu qishloqda Sariboy bo‘lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo‘lli xizmatkor doim zarur bo‘lib turar ekan.
3. ... Shu ondayoq xayr-xo‘shni nasiya qilib biyobonga yo‘l soldim. Osmon uzoq, yer qattiq edi. Qayerga ketib borayotganimni o‘zim bilmas edim. Oldinda biror mo‘ljallagan niyatim ham yo‘q edi. Darbadarlikdan, o‘zimning simobday beqaror sayoqligimdan juda o‘kinar edim.

4. Boyning yig‘lab kelishini uy ichlari eshitib, ular ham “bir balo bo‘pti, shekilli”, deb uydan yig‘lab chiqqa boshladilar. Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi.
A) 3, 2, 1, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 2, 4, 3, 1 D) 4, 1, 2, 3

43. (Q 4,5 ball) O‘xshatish badiiy tasvir vositasi ishtirok etgan gap(lar)ni aniqlang.

1. Darbadarlikdan, o‘zimning simobday beqaror sayoqligimdan juda o‘kinar edim.
2. Uzumchi: “Otim oriq, yukim ko‘p, ikkita devday kishi bitta baytalga mingashsa, uyat bo‘ladi”, deb ba-hona qilsa ham, xiralik qila berdim.
3. Ayniqla, hozir olmalar pishgan vaqtি bo‘lgani uchun menday osh-tomog‘iga yuradigan arzonqо‘l kishilarni eshididan quvlamas ekan.
4. Boyning qari-qartang aralash yigirma chog‘i xizmatkorlari kechki juvari go‘ja ustida edilar.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 3 D) Faqat 2

44. (Q 4,5 ball) Erkin Malikning “Nima qilib qo‘yding, Sherzod?” hikoyasi haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

- A) Munis va mushfiq kelinoyisiga xushxabar yetkazaman deya o‘zi istamagan holda “aybdor” bo‘lib qolgan bolaning iztiroblari haqida hikoya qilinadi.
- B) Asarda tarbiyasi og‘ir bolaning cho‘zmaga tosh solib otishi, oqibatda ilmga chanqoq tengdoshini bir umrga mayib qilib qo‘yishi haqidagi voqealar hikoya qilinadi.
- C) Hikoyaning qahramoni o‘zi bexos guvohi bo‘lib qolgan voqeani barchadan sir tutgani, oqibatda bu holat boshqa bir begunohning qattiq jabr ko‘rishiga sabab bo‘lgani haqidagi voqealar hikoya qilinadi.
- D) Hikoya qahramonining o‘yinqaroqligi tufayli onaning nohaq dashnom eshitgani, oqibatda ona ko‘ngliga ozor yetgani haqidagi voqealar hikoya qilinadi.

45. (M 5,5 ball) “Eng og‘ir gunoh” hikoyasining sarlavhasi haqidagi to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

- A) Bo‘rilar bilan til biriktirgan itini otib o‘ldiraman deb o‘z farzandini otib qo‘ygan otaning iztiroblari aks ettirilganligi sabab hikoyaga shunday nom berilgan.
- B) Hikoyaning qahramoni o‘zi bexos guvohi bo‘lib qolgan voqeani barchadan sir tutgani, oqibatda bu holat boshqa bir begunohning qattiq jabr ko‘rishiga sabab bo‘lgani uchun asar shunday nomlangan.
- C) O‘ch olish istagida dushmanining farzandini tog‘dagi o‘rmonga adashtirib kelgan hikoya qahramonining vijdoni oldidagi iztiroblari aks ettirilgani sabab hikoya shunday nomlangan.
- D) Hikoya qahramonining o‘yinqaroqligi tufayli onaning nohaq dashnom eshitgani, oqibatda ona ko‘ngliga ozor yetgani haqidagi voqealar aks ettirilgani uchun asar shunday nomlangan.

